



Cho'lponning "Qor qo'ynida lola"

Sobirova Parivash

*Nizomiy nomidagi O'zMPU Filologiya fakulteti
O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi
1-bosqich talabasi
E-mail: sobirovaparivash@gmail.com*

Annotasiya

Ushbu maqolada Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon qalamiga mansub "Qor qo'ynida lola" hikoyasi va undagi ramziy obrazlar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar : Cho'lpon, "Qor qo'ynida lola" hikoyasi, ramziy obrazlar, ekspozitsiya, qahramonlarning munosabatlari.

Abstract

This article analyzes the story "A Tulip in the Snow" by Abdulhamid Sulaymon o'g'li Chulpon and its symbolic images.

Keywords: Chulpon, the story "Tulip in the Snow", symbolic images, exposition, interaction between characters.

Аннотация

В данной статье анализируется рассказ «Тюльпан в снегу» Абдулхамида Сулеймона оглу Чолпона и его символические образы.

Ключевые слова: Чулпон, рассказ «Тюльпан в снегу», символические образы, экспозиция, взаимодействие персонажей.

Adabiy tanqidchi va adabiyotshunos olim Ozod Sharafiddinov ta'kidlaganidek, dunyodagi istagan adabiyotning iftixori bo'lishga arziydigan, har qanday madaniyatli jamiyatda Xudo ato etgan buyuk iste'dod egasi tarzida qabul qilingan, "ustoz", "muallim" sifatida e'zozlanishi mumkin bo'lgan adib - Cho'lpon. Darvoqe, nasr va nazmda samarali ijod qilgan Cho'lpon o'z asarlari orqali millatni uyg'otishga harakat qiladi, ogohlikka chorlaydi.

Xususan, uning "Qor qo'ynida lola" hikoyasi nafaqat o'sha davr, balki bugungi kunda ham dolzarb masalalardan biriga aylangan holat haqida hikoya qilinadi.

Ushbu hikoya 1923-yilda yozilgan bo'lib, hajm jihatdan ixcham bo'lsa-da, mohiyatan juda muhim hisoblanadi.

Hikoya sarlavhasining o'ziyoq kitobxonda qiziqish uyg'otadi, bir qator savollar tug'diradi : "lola kim?", "qor kim yoki nimaning ramzi? ", "loladek nozik gul qor bag'rida o'sa olarmikan, nobud bo'lasmikan?"... Albatta bu savollarga hikoyani o'qib chiqqach javob topish mumkin.

"Qor qo'ynida lola" hikoyasi yosh qizlarning to'p sahnasi bilan boshlanadi. Qizlarning o'zi ham, o'yinlari ham, hatto suvga tushib xo'l bo'lgan koptok ham beg'ubor bolalik timsoli edi. Keyingi sahnada bosh qahramonlardan biri bo'lmish Sharofatxonning otasi - Samandar aka va uning eshon bilan munosabatlari haqida so'z boradi. Samandar aka eshonni haddan ziyod hurmat qiladigan, unga qattiq bog'lanib qolgan, ma'rifatdan bebahra obraz bo'lsa, Eshon esa o'sha davrdagi nafsiga qul, obro'-mansab bandilari, o'z amalidan foydalanib, o'z maqomini pesh qilib turli xil noma'qul ishlarga qo'l uradigan chala mullalar timsolida gavdalantirilgan obrazdir. Sharofatxon bo'lsa, umrining bahorida yuqorida zikr etilgan zolimlar va ularning nafsi qurboni.

Samandar aka eshonga el qatori qimmatbaho sovg'a-salomlar bera olmaganidan afsuslanib yurdi. Nihoyat, chora topildi: boshqalar eshonga non, qo'y, sarpo va shu kabi narsa-buyumlar nazr qilgan bir paytda Samandar aka o'z qizi Sharofatxonni otasi tengi cholga hadya qilib yubordi. Hamma zamonlarda kishilarga o'rnak bo'lishi kerak bo'lgan, insonlarni yomon ishlardan qaytarib, yaxshiliklarga chorlashi lozim bo'lgan eshon nabirasi tengi qizga sovg'i qo'yishi hikoyaning birinchi fojiasi bo'lsa, bitta-yu bitta qizi, o'n gulidan bir guli ochilmagan 17 yoshli go'dakni o'z otasi tomonidan "bersak, eshonga beribmizda" - deya soch-soqoli oqargan cholga berib yuborishi - ikkinchi fojiaidir.

Demak, hikoya sarlavhasidagi "lola" - Sharofatxon, "lola"ning ustiga yoqqan "qor" esa Eshon obrazi, desak bo'ladi. Samandar aka-chi? Yuz bergan hodisalarga befarq shaxsmi? Yo'q! Samandar aka ham "lola" ustiga yoqqan "qor". Chunki yoshi bir joyga borib qolgan cholga 17 yoshli qizini qo'sh qo'llab topshirib yuborgan va buni odatiy hol sifatida qabul qilgan ota begunoh bo'la olmaydi.

Bundan tashqari, asar ekspozitsiyada qizlar o'ynayotganida suvga tushib ketgan to'p ham o'ziga xos ma'noga ega. Ahamiyat berilsa, Cho'lpon ariqqa tushib ketgan koptokni to'lqinlar ixtiyorida beixtiyor chayqalishiga alohida urg'u beradi. Demak, ixtiyori to'lqinlar izmida bo'lgan to'p - jamiyatda o'z erkiga ega bo'lmagan qizlar ramzi sifatida gavdalantiriladi.

Cho'lponning "Qor qo'ynida lola" hikoyasi hamda "Kecha va kunduz" romanlarida bir xil muammo ko'tarilishi bejiz emas. Chunki bu holat o'z dolzarbligi bilan yozuvchining diqqatini tortgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkin-ki, ma'rifatparvar Cho'lpon "Qor qo'ynida lola" hikoyasi orqali insonlarni ko'zlarini ochishga harakat qiladi. Toki lolalar qor ostida qolib ketmasin.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Cho'lpon A. Tanlangan asarlar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1988.
2. Qur'onov D. Cho'lpon: hayoti va ijodiy merosi – Toshkent: O'qituvchi, 1997
3. D. Qur'onov. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022.